

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO'LIM
4-BOSQICH 404- GURUH TALABASI**

BEKMONOVA SURAYYONING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish”
Bakalavr darajasini olish uchun

Urganch – 2013 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO'LIM

4-BOSQICH 404 - GURUH TALABASI

BEKMONOVA SURAYYONING

***“3- sinfda “Gap” mavzusini o`rganish metodikasi”
mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish”

Bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar:

Taqrizchi:

o`qituvchi B.Sapayeva

Urganch tumanidagi 6-son umumta`lim maktab
boshlang`ich sinf o`qituvchisi Abdullayeva I.

Ish ko`rildi va himoya
qilishga ruxsat berildi.

«BTN va M» kafedrasining

2013 yil «_____» dagi

№_____bayonnomasi.

Kafedra mudiri: dots. S.Ollaberganova

Urganch – 2013

**MALAKAVIY - BITIRUV ISHINI BAJARISH
GRAFIGI.**

№	Loyiha bosqichlarining nomi	Nazorat vaqti	Rahbarning talaba tomonidan bajarilgan ishlarning ahvoli haqidagi belgisi, sana, imzo
1.	Mavzuni kafedrada tasdiqlash	Sentabr 2012	Bajarildi
2.	Malakaviy - bitiruv ish rejasini tuzish	Sentabr 2012	Bajarildi
3.	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish. Uzlaksiz ta'lim tizimini isloh qiluvchi davlat hujjatlarini o'rganish	Oktabr Noyabr 2012	Bajarildi
4.	Mavzuning nazariy pedagogik - metodologik asoslarini o'rganish	Dekabr 2012	Bajarildi
5.	Yechilayotgan muammoni amalga oshirish uchun aniq didaktik va tarqatuv materiallarini ishlab chiqish	Yanvar 2013	Bajarildi
6.	Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish uchun metodologik va pedagogik tajribalarni o'tkazish.	Fevral 2012	Bajarildi
7.	Tajriba natijalarini tahlil etish va ishni taqrizdan o'tkazish.	Mart 2013	Bajarildi
8.	Rahbar tomonning tugallangan bitiruv - malakaviy ishlarini taqrizdan o'tkazish.	April 2013	Bajarildi
9.	Tugallangan ishni rahbar bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	May 2013	Bajarildi

Bitiruvchi talaba _____
(imzo)

Malakaviy – bitiruv ishi
rahbari _____
(imzo)

REJA:

Kirish.

I Bob. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari.

1.1. Boshlang'ich sinflarda Davlat ta'lim standarti talablari asosida ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish.

1.2. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari va shakllari.

II Bob. 3- sinfda “Gap” mavzusini o'rganish.

2.1. Boshlang'ich sinflarda “Gap” mavzusini o'rganishdagi izchillik.

2.2. 3- sinf “Ona tili” darsligida “Gap” mavzusining yoritilishi va mavzuni o'rganishda foydalanishga mo'ljallangan ijodiy topshiriqlar

Xulosa.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida umumiy o'rta ta'limning uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-y.) qabul qilindi, Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi Qarori (1998-y.) amaliyotga joriy qilindi. Natijada o'zbek maktabi raqobatbardosh yoshlarni yetishtirib chiqarishning yetakchi maskaniga aylandi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga yo'nalgan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi: avvalo, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari asoslanib, davr talablariga mos dastur, darsliklar tuzildi; o'quvchilar o'zlashtirishini jahon andazalari darajasiga ko'tarishni mo'ljallab Davlat ta'lim standart (DTS)lari tanlanib, joriy qilindi. Bu, shubhasiz, ta'lim jarayonida bolalar o'zlashtirishini ilmiy asosda tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishning imkoniyatlarini oshirdi. O'qituvchilar faoliyatida pedagogik texnologiya g'oyalaridan foydalanish, o'quvchilar o'zlashtirishini testlar orqali aniqlash, reyting nazoratini joriy qilish kabi yangiliklar munosib o'rin ola boshladi. Endigi bosh vazifa ta'lim jarayonini atroflicha tahlil qilish, uning qobig'ida yashirinib yotgan imkoniyatlarni izlab topish, o'quvchilarning tashabbuskorligi, mustaqilligi, ijodkorligini tarbiyalashga yo'naltirilgan interfaol metodlardan foydalanish usullari, vositalari, shakllarini asoslashdan iborat. "Biz yigit va qizlarimizning ma'lumotli kishi bo'lishi uchun, - deb yozgan edi Prezidentimiz I.A.Karimov,-zarur bo'lgan barcha bilimlarni egallay olishlariga, yangi sharoitlarga tez va mashaqqatlarsiz moslashishlariga imkon berishimiz kerak. Yangilangan o'z davlatini qurish, isloh qilish jarayonining faol qatnashchilari bo'lishiga imkon beradigan, madaniy, axloqiy va ma'naviy

qadriyatlarni egallab olishlari uchun yordam beradigan sharoit yaratishimiz darkor”

Jamiyatni rivojlantirish uchun ongni, tafakkurni o'stirish, ong va tafakkurni taraqqiy ettirish uchun maktab-ta'lim jarayonini takomillashtirish g'oyasi pedagogik fikrlashdagi yangi bog'lanishdir.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va xalq ta'limi to'g'risidagi yangi davlat hujjatlarini og'ishmay amalga oshirish I.A.Karimovning so'zlari bilan aytganda “ijobiy ma'nodagi “portlash effekti”ga erishishimizga olib keladi. Ijobiy ma'nodagi portlash effektini Prezidentimizning o'zi quyidagicha sharhlaydi: “Ishonchim komil: agar bu islohotni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi “portlash effekti”ga, ya'ni uning samarasiga erishamiz. Bu nima degani? Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ...to'liq amalga oshgan taqdirda ular, birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi. Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. To'rtinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi. Beshinchidan, biz fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo'yildi. Ishonchim komilki, vaqti-soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. ...Bu modeldan ko'zlangan yana bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishamiz”

Shunday qilib, maktabni zamonaviylashtirish, uni hozirgi zamon fani, texnikasi, texnologiyasi asosida qayta qurish yo'li bilan odamlar tafakkurini rivojlantirish, fuqarolarni erkin fikrlovchi shaxslar qilib tarbiyalash va u orqali ozod va obod jamiyatni barpo etish mumkin. Bu esa uchlikning o'zaro aloqadorligi bilan amalga oshiriladi: «maktab-tafakkur-jamiyat» o'zaro uyg'unlashib yagona yaxlit tizimni hosil qilgan paytdagina, inson “o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi”

I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida o'qituvchi va o'quvchi munosabatida yoshlarning mustaqil fikrlashiga alohida ahamiyat berib, shunday deb uqtirgan edi: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”

Mustaqil fikrlash til bilimlarini puxta egallash bilan uzviy Bog'lanishliq. Shunday bo'lgach, bolalarda mustaqillikni shaxsiy sifat shaklida tarkib toptirishda ona tili yetakchi o'quv predmeti hisoblanadi. Bola necha yoshdan, qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish tajribasining zaif tomonlarini tanqid qilib, I.A.Karimov “maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi” muammosini qo'yib, “aminmanki, o'rgatilmaydi” deb yozgan edi. “Mobodo, biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi ta'lim jarayonida o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: “mening aytganim-aytgan, deganim-degan”

I.A.Karimovning “Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli nutqida qator muammolar qo'yilganki, ularni oqilona hal qilish, shubhasiz, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashga yordam beradi. Prezidentimiz tadqiqotchilar diqqatiga havola qilgan didaktik va metodik muammolar:

-boshlang'ich sinflar mohiyati ("Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak");

-boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatlari ("Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o'ziga singdira oladi...");

-shaxs kamolotida mustaqil fikrlashning o'rni ("Bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi");

-ta'lim subyektlari-o'qitish va o'qish faoliyatining o'zaro munosabati ("O'qituvchi va o'quvchi munosabatida ongli intizom");

-bolalarni mustaqil fikrlashga maxsus o'rgatish lozimligi ("O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat...");

-shaxsning umumiy taraqqiyotida gumanitar ta'limning ahamiyati ("... chet tillarni o'rganish, minba'd ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmasligi lozim");

-ona tili ta'limining maqsadi ("O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olish zarurligi")ga daxldor masalalar bo'lib, ular ta'limni zamonaviy talablar asosida tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Qayd etilgan muammolarni tadqiq qilish qator shart-sharoitlarga Bog'lanishliq. Avvalo, ta'limda o'quvchilarning maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirishga ehtiyoj tug'iladi. Qolaversa, ta'limni bolalarning o'quv-biluv faoliyatiga, binobarin, tafakkuriga mo'ljallab tashkil etish tamoyillari, usullari, vositalarini asoslashga, o'quvchilarning o'quv-biluv imkoniyatlarini keng yoritish zaruriyati dolzarb bo'lib qoladi. Shu bilan birga, ta'limni zamonaviy pedagogik g'oyalar asosida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning yangi amaliyotini asoslash, unga o'qituvchi va o'quvchilarni ko'niktirish kun tartibida turgan muammodir. Shu ma'noda ushbu bitiruv malakaviy ihi mavzusi dolzarblik kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu ishda quyidagi **vazifalarni** hal qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

--- DTSda ona tili darslariga qo'yilgan talablar;

- boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llanadigan metodlar;
- 3-sinf "Ona tili" darsliklarida berilgan "Gap" mavzularining mazmun-mundarijasini ko'rsatish;
- 3-sinflarda "Gap" mavzusini o'rgatishning ilmiy-metodik asoslarini yoritish;
- "Gap" mavzusini o'rganish darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.

Tadqiqot obyekti: 3- sinf "Ona tili" darsliklarida berilgan "Gap" mavzusiga oid mavzularni o'rganish orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatish va mavzuga doir mavjud adabiyotlarni tashkil qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Boshlangich ta'lim konsepsiyasi", "Boshlangich talim DTS va o'quv dasturi", "Barkamol avlod yili " Davlat dasturi, Prezidentimizning asarlari hamda ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari; mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar.

I bob

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari

1.1. Boshlang'ich sinflarda Davlat ta'lim standarti talablari asosida ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil, shu bilan birga, o'ta murakkab tarkibiy qismidir. Avvalo, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'inidir. U o'ziga yarasha dastur, darslik, o'quv qo'llanmalariga ega. Boshlang'ich sinflarda alohida tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar ishlaydi. Boshlang'ich ta'lim muammolarini tahlil va tadqiq ishlari bilan mutaxassis olimlar shug'ullanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim ma'lum o'quv yillaridan tashkil topadi. Bular boshlang'ich ta'limning mustaqil bo'g'in ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining murakkab bo'g'ini hisoblanadi. Bola o'qish, yozish, hisoblash texnikasini ilk bor boshlang'ich sinfda egallaydi. U to'rt o'quv yili mobaynida hozirgi zamon fani, ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy asoslarini o'zlashtiradi va fikrlashni o'rganadi. Bolalar boshlang'ich sinflarda o'qitilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirok etish yo'llari, vositalarini egallaydi. Ular mustaqil fikrlash, hayotda o'z o'rnini egallash sirlaridan voqif bo'ladi, 5-9-sinflarda ona tili o'quv predmetining to'liq kursini o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rishadi. Bular boshlang'ich ta'limning o'ta murakkab ekanligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, umuman maktablarni, bizning sharoitda boshlang'ich sinflarni isloh qilishning ikkinchi sifat bosqichida boshlang'ich ta'lim mohiyatini o'rganishni davom ettirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatlarini pedagogik va metodik jihatdan atroflicha o'rganish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, bolalarda mustaqil fikrlash layoqatlarini tarbiyalash, bolaga o'z fikrlarini ona tilida ravon,

tushunarli bayon qilish vositalari, usullarini tadqiq qilish kabilar ona tili metodikasi sohasida ham eng zaruriy va dolzarb masalalar sanaladi. Ana shularni inobatga olib, bituruv malakaviy ishimizning ushbu rejasida Davlat ta`lim standartlarining metodik qimmatini hamda boshlang`ich sinf ona tili darsliklari, shuningdek, ularning ona tili metodikasi uchun ahamiyati, Davlat ta`lim standartlari bilan ta`limni ijodiy tashkil etish masalalarini uzviy aloqadorligini muhokama qilamiz.

Davlat ta`lim standart (DTS)larining metodik mohiyati respublikamiz hududidagi maktablarda bolalarning o`quv predmetlarini o`zlashtirishini rivojlangan mamlakatlardagi bolalarning ta`lim mazmunini o`zlashtirishlariga taqqoslab o`rganish, ta`lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilish, ta`lim jarayonining real amal qilishida zaif joylarini aniqlash imkoniyatlarini oshiradi. “Davlat ta`lim standarti,-deb yozilgan umumiy o`rta ta`limning Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturiga oid to`plamda,-ta`lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta`lim mazmunining o`zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko`rsatayotgan muassasalarda (davlat va nodavlat) ta`limning barqaror darajasini ta`minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta`lim standarti o`z mohiyatiga ko`ra o`quv dasturi, darsliklar, qo`llanmalar, nizomlar va boshqa me`yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo`lib xizmat qiladi”

“Standart” (inglizcha-standart, ruscha-norma, o`zbekcha-qolip) “qoida”, “namuna” ma`nolarini anglatadi. Har bir o`quv predmetining o`zigagina xos standartlari mavjud. Masalan, ona tilida “atoqli otlar”, sodda va qo`shma gaplar, matematikada ko`paytirish va bo`lish, tipik masalalar ta`lim standartlaridir”

Kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, daryo, tog`, ko`l, cho`l, qishloq, ko`cha, shahar nomlari, hayvonlarga atab qo`yilgan otlar, gazeta, jurnal, kitob, ilmiy va badiiy asarlarning yozilishi bitta standart-“bosh harf bilan yoziladi” degan qoida bo`yicha boshqarilib o`zlashtiriladi.

Davlat ta`lim standartlari tanlanadi. Ularni tanlash va tartibga tushirish manbai fan, ishlab chiqarish, texnika va texnologiyadir. Standartlar o`qituvchiga nisbatan

mo'ljal (orientir) vazifasini, o'quvchiga nisbatan o'rganish obyekti vazifasini o'taydi.

Har bir ta'lim standarti o'zigagina xos mazmunga ega. Masalan, shaxs va narsalarning nomini bildirgan so'zlar ot deyiladi. Bu ta'rif ot-so'z turkumiga oid so'zlarni boshqa kategoriyalardan farq qilish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga ta'lim standartlari nisbatan pedagogik hodisa bo'lib, ular fan, ishlab chiqarish, fikrlash shakllari, texnika va texnologiyada sezilarli o'zgarishlar bo'lgunga qadar o'z turg'unligini saqlaydi. Ta'lim standartlari tanlanadi. Ularni ko'paytirish va, aksincha, ozaytirish, sanash mumkin.

2. Boshlang'ich sinflarda ona tilidan ta'lim standartlari. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning hozirgi metodikasi va unga oid pedagogik amaliyot bolalar xotirasiga mo'ljallanganligi hech kimga sir emas. O'quvchi o'rganilgan ta'rif, qoida, aniqliklarni yodlab olib, ularni misollar bilan tushuntira olsa, ta'limdan ko'zlangan maqsad amalga oshdi deb o'ylashadi. Xotiraga mo'ljallangan an'anaviy ta'lim tizimi o'quvchining ongi, tafakkuri, uning ichki olami-qiziqishi, emotsiya, motivlariga yetarli ta'sir qila olmaydi. Natijada bolaning faolligi, mustaqilligi, tashabbuskorligi, binobarin, ijodkorligiga yetarli e'tibor qilinmaydi. O'quvchining an'anaviy ta'lim sharoitidagi maqomi-bolaning ta'lim jarayoni obyekti ekanligi to'g'risidagi qarashlar o'qituvchini ham, o'quvchini ham qabul qilingan qoidalar-rigorizmlar chegarasidan chiqarmasdan iskanjada saqlab turadi.

O'quvchini ta'lim jarayoni subyekti funksiyasida ishtirok ettirish, til ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, ta'limga interfaol usullarni olib kirish ona tili ta'limi mazmunini o'quv topshiriqlari, muammolari, testlar tizimi shakliga keltirish, ona tilidan o'zlashtiriladigan obyektlarni-nutq tovushi, so'z, turli sintaktik qurilmalarni faol fikrlash vositasiga aylantirish orqali ona tili ta'limining ijodiy yo'nalishini kuchaytirish mumkin. Ona tili ta'limining ijodiy yo'nalishini amalga oshirishda ta'lim standartlari o'lchov vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili sohasida ta'lim mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nutq tovushlari: unli va undosh, jarangli va jarangsiz tovushlar;
- bo'g'in: urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, ochiq va yopiq bo'g'inlar, aytilgan yoki berilgan so'zlarni fonetik tahlil qilish;
- so'z: so'z ma'nolari, ma'nodosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar;
- o'zakdosh so'z, o'zak, negiz, qo'shimcha, old qo'shimcha, so'z turkumlari tahlili, so'z yasovchi qo'shimchalar, narsa nomi qo'shimchasi, narsaning rang-tusini bildirgan so'zlar, narsaning miqdori va son-sanog'ini bildirgan so'zlar, ish-harakatni ifodalovchi so'zlar;
- ko'makchi va bog'lovchilar;
- gap: darak ma'nosini ifodalovchi gaplar, so'roq ma'nosini ifodalovchi gaplar, his-hayajon ifodalovchi gaplar;
- tinish belgilari: nuqta, so'roq, undov, vergul;
- matn; matnning tuzilishi, mavzu, asosiy fikr, sarlavha, reja, so'z boshi, taqqoslash, dialog, monolog, bayon, insho, og'zaki va yozma ijodiyot, xat, xabar, tabriknoma.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mazmuni to'rt yo'nalishda o'zlashtiriladi.

Birinchi yo'nalish. Ona tilidan elementar bilimlarni o'rganish. O'quvchilar nutq tovushi va harf to'g'risidagi dastlabki bilimlarni, unli va undosh tovush, jarangli va jarangsiz undosh, bo'g'in, ochiq va yopiq bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalariga oid axborotlarni o'rganadi. Shuningdek, so'z va uning ma'nolarini farqlashga oid, so'z ma'nolari va so'roqlariga ko'ra guruhlash-ot, sifat, son, fe'l, bog'lovchi so'zlar haqida ilk qarashlarni bilib oladi. Tildan elementar bilimlarni o'rganish gap tushunchasi bilan aloqadorlikda butun boshlang'ich ta'lim muddatida davom ettiriladi. Bolalar darak, so'roq, his-hayajon gaplarni, ularda ishlatiladigan tinish belgilari to'g'risidagi axborotlarni, nutq va uning turli ko'rinishlari-xat, xabar, tabriknoma, maqola, taklifnoma xususidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradi.

Ikkinchi yo'nalish. Ona tilidan ilk ilmiy axborotlarni o'zlashtirish nutq ko'nikmalarini shakllantirish bilan uzviy aloqadorlikda davom ettiriladi. Ona tilida

aytish va aytganlarni yozma nutq vositasida qayd etish, gapirish va eshitish, fikrni nutq vositasida ro'yobga chiqarish ehtiyoji o'quvchilarda turli nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni malaka darajasiga ko'tarish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Boshlang'ich sinflarning ona tili o'quv predmeti bo'yicha hosil qilinadigan ko'nikma-malakalar quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilinadi.

1. Fonematik eshitish malakalari-nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri ijro etish va eshitish, nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarini farqlash, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni talaffuz qilish, so'zlarni bo'g'inlar ketma-ketligida aytish va eshitish layoqatlari.

2. Grafik malakalar-har bir nutq tovushini o'ziga oid harf va belgilar bilan yozish demak.

3.Orfografik malakalar-so'z va uning tarkibiy qismlari o'zak va negizni, yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo'shimchalarni ajratib va qo'shib yoziladigan so'z, so'z birikmalarini, atoqli otlarni orfografik qoidalar doirasida yozish.

4. Uslubiy malakalar-so'z va uning tarkibiy qismlarini matnda ortiqcha takrorlamasdan, gap tarkibida gap bo'laklari tartibiga rioya qilib, matnni shakllantirish.

5. Tinish belgilarini yozma nutqda to'g'ri ishlatish malakalari-boshlang'ich sinflarning dasturlari hamda Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan nuqta (.), so'roq (?), undov(!), vergul (,) kabi belgilarni matnda to'g'ri ishlatish va matnni jonlantirish, ya'ni o'qish paytida ularga rioya qilib faoliyatni amalga oshirish.

6. Prosodik malakalar-nutq tempi, ovozning past- balandligi, diksiya, ohangga rioya qilib o'qish, gapirish, aytish malakalari.

Uchinchi yo'nalish. Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish. Bola ona tili vositasida ham ijtimoiy tajribani, ham ijtimoiy tajribani o'zlashtirish vositalarini egallaydi. Shu hodisani inobatga olib, didaktikada keyingi yillarda yangi bir yo'nalish asoslandi. Bu yo'nalishga ko'ra ma'lumot va ta'lim mazmunining manbai sifatida ijtimoiy tajriba tahlil qilina boshlandi.

O'z faoliyati natijasini o'zgaralar faoliyati mahsuliga qo'shib ko'rsatish yo'li bilan yoshlar turli axborotlarni ham, an'anaviy faoliyat usullarini ham, ijod qilish yo'llarini ham, narsa-hodisalarni emosional baholash mezonlarini ham o'zlashtirib olishadi. Aftidan, bolalar ijodkorligining ilk qarashlarini xuddi ana shu hodisadan-o'z faoliyati natijasini o'zgaralar faoliyati natijasiga qo'shib ko'rsatish jarayonidan izlamoq kerak .

Bilim, malaka va faoliyat usullariga munosabat bildirish, bilish jarayoni natijasini jarayonning o'zidan ajratib tahlil qilish, o'rganilgan va tahlil qilingan narsa-hodisalarni baholash, o'rganilgan va endi o'rganiladigan hodisalar o'rtasidagi chegarani anglash, o'zlashtirish va hali bilib olinmagan narsalarning farqiga borish o'quvchilarni ta'lim sharoitidagi ijodkorlikka yetaklaydi. "Ijod, o'z navbatida, kompleks hodisa bo'lib, u fikrlashning taraqqiyot darajasiga ham, tafakkurning evristik-topqirlik layoqatiga ham, avlodlar faoliyatidagi vorislikka bog'lanishlik. Xalqimiz-azal-azaldan ijodkor xalq. Unda progressiv hodisalarni qabul qilish va "hazm qilish" layoqati yuqori darajada takomillashgan. Qalovini topsang, qor ham yonadi deganlaridek, o'zbekning har bir sog'lom farzandini ijodkor Shaxs qilib yetishtirish mumkin" .

To'rtinchi yo'nalish. Tilga, til orqali til ijodkori-xalqqa munosabatni shakllantirish. Bu yo'nalish boshlang'ich sinf ona tili ta'limida yetakchi bo'lib, bolalarda til bilimlari asosida dunyoqarashni, tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarni tarbiyalashni taqozo qiladi. Munosabat keng ma'noda dunyoqarash demakdir. Tabiat, jamiyat, ong hodisalariga oid bilimlarni egallash bolalarda shu hodisalariga munosabatlarni tarbiyalaydi/ Bolada tilga, uning turli unsurlariga oid qarashlarni rivojlantirish-bu, avvalo, tafakkur, ongli faoliyatning ishidir. Bolada tilga munosabat shakllangan sari, u o'zining va o'zgaralar nutqining sir-asrorini egallay boradi, o'zini, o'zligini, o'z xalqini, Vatanini anglay boshlaydi. Aftidan, buyuk mutafakkir shoir A.Navoiy "tilga e'tiborsiz, elga ixtiyorsiz" deganda tilning tarbiyalovchanlik xususiyatini ko'zda tutgandir.

Yuqorida izohlangan yo'nalishlarga rioya qilib, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi mazmunini ijodiy o'zlashtirish jarayonini boshqarish mumkin. Buning uchun boshlang'ich sinf ona tili predmeti mazmunini tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ikkinchi bosqichi sifat bosqichi bo'lib, bunda maqsad uzluksiz ta'limning dastlabki pog'onalaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'limda ham yangi zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etishni talab etadi.

Darhaqiqat, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish borasida batamom yangi vazifalarni qo'yadi. Shunday ekan, ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy “inqilob” hosil qilishga erishish yo'llarini izlab topish va amalga tadbiiq etish sohasida jiddiyroq o'ylab ko'rish vaqti keldi. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda prof. A.G'ulomov va H.Ne'matovlar tomonidan tavsiya qilingan mashqlar tasnifiga tayandik:¹

- 1.Qayta xotiralash tipidagi mashqlar.
- 2.Qisman izlanuvchanlikka oid mashqlar.
- 3.Ijodiy mashqlar.

1-4-sinf ona tili darsliklarida berilgan mashqlarni o'rganish jarayonida quyidagilar aniqlandi². 1-sinf ona tili darsligida berilgan 175 ta mashqdan 92 tasi (52%) qayta xotiralash mashq tipiga, 45 tasi (35%) qisman izlanuvchanlik, 21 tasini (12%) ijodiy mashqlar tashkil etadi; 2-sinf ona tili darsligida berilgan 298 ta mashqning 202 tasi (67%) qayta xotiralash, 66 tasi (22%) qisman ijodiy, 30 tasi (18%)ni ijodiy mashqlar; 3-sinf ona tili darsligida berilgan 319 mashqdan 232 tasi (72%) qayta xotiralash, 62 tasi (19%) qisman ijodiy, 25 tasi (7%)ni ijodiy mashqlar; 4-sinf ona tili darsligida berilgan 470 mashqdan 353 tasi (75%) qayta xotiralash, 93 tasi (19%) qisman ijodiy, 24 tasi (5%)ni ijodiy mashqlar tashkil

¹ G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –T.: O'qituvchi, 1995. -125 b.

²Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda 2010-2011-yillarda nashr qilingan darsliklardan foydalandik.

qiladi. Bundan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlari nihoyatda kam ekanligi ma'lum bo'ladi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishda o'quvchi faoliyati:

- bilimlarni amaliyotda qo'llay olish;

- olingan bilimlarga tayangan holda xulosalar chiqarish;

- tildan egallangan bilimlarni umumlashtirish;

- tafakkurga mo'ljallangan topshiriqlardan o'quv faoliyatida foydalana olish;

- o'rganilgan bilimni turli vaziyatlar (matn ichidan talab qilingan so'z yoki so'z birikmasini topish, matnda berilgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirish, so'zlarni talab qilingan guruhlariga ajratib yozish)ga tatbiq eta bilish.

Boshlang'ich sinf ona tili predmeti funksiyalari tarkibini bilmasdan ona tili predmeti va ona tili darsliklari tushunchalarini chegaralamasdan turib, ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish to'g'risida fikr yuritish amri maholdir.

Ta'lim sharoitida til va nutqni o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchi faoliyati) obyekti sifatida qatnashadigan sohalar majmuini ona tili predmeti sifatida tushunamiz. Tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasiga doir bilimlar, ularga oid nutq ko'nikmalari, shakllantiriladigan ijodiy faoliyat tajribasi, til va nutqqa doir munosabatlar tizimi "ona tili predmeti" tushunchasi kontekstida qaraladi.

Tarkibiy qismlari ta'lim maqsadi-nutq o'stirish talabiga ko'ra o'zaro bog'langan, ona tilining grammatik qurilishi bo'yicha elementar bilim berishga mo'ljallangan 1-4-sinflarda o'rganiladigan nutq ko'nikmalarini (orfografik, grafik, orfoepik, prosodik, uslubiy, punktuasion) rivojlantirishga qaratilgan o'zbek tilshunosligi ishlanmasiga boshlang'ich sinf ona tili predmeti deyiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili o'quv predmeti oldiga qo'yiladigan vazifalar:

- bolalarda nutq tovushi, bo'g'in, urg'u, so'z, so'z birikmasi, so'zning tarkibi, so'z turkumi, gap haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish, ularni ijro etish, o'qish, yozish, eshitishga oid malakalarni rivojlantirish;

-o'quvchilar nutqini turli so'zlar, iboralar, qurilmalar bilan boyitish yo'llari va ularni nutq tuzishga o'rgatish;

-o'quvchilarda aqliy, estetik, etik tasavvurlarni, til va nutqqa munosabatni tarkib toptirish, ularda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash;

-boshlang'ich sinfni tamomlovchi o'quvchilarni o'qish-o'rganishni bundan so'ng davom ettira olishga tayyorlashdan iborat.

Keltirilgan vazifalar tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o'rganish zaminida amalga oshiriladi. Maktabda tilning har bir tomonini o'zlashtirishda uch narsaga: maktab dasturlari va ta'lim standartlari chegarasida elementar nazariy bilimlarni o'zlashtirish, o'rganilgan bilimlar bilan Bog'lanishliq ravishda nutq malakalarini shakllantirish, o'quvchilarda ijodiy layoqatlarni o'stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Tilning fonetikasi uning birdan-bir aniq tomoni hisoblanadi. Masalan, "b" tovushi faqat va faqat "b" tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo'g'in, urg'u kabi lingvistik kategoriyalar abstrakt tafakkur mahsuli bo'lsa-da, nutq tovushi (b), so'zning bir qismi (bo-bo), so'z bo'g'inlaridan birining kuchli aytilishi (ish-chi-man) bizning ongimizga bog'lanishli bo'lmagan hodisadir.

Fonetikani o'zlashtirish o'quvchilarning tafakkurini o'stirish bilan bevosita bog'langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so'z tarkibida o'rgatiladi. Natijada o'quvchi so'zning fizik tomoni hisoblangan nutq tovushlarini so'z tarkibida farqlash ko'nikmalarini hosil qiladi. Ma'lum nutq tovushi bo'yicha so'z ma'nolarining o'zgarishi ustida ishlash (o'n-en-in-un; il-ich-iz-ip-ish), so'zlarni tovush va bo'g'inlariga ko'ra tahlil qilish, berilgan harf va aytilgan tovush ishtirokida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish bolalarda nutq qura olish layoqatlarini o'stiradi.

Nutq tovushlari, ularning o'zaro farqlari ustida mashq qilish natijasida o'quvchilarda ham lingvistik tushuncha shakllanadi, ham fonematik eshitish (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri anglash, fahmlash, eshitish, aytish) rivojlanadi. Lingvistik tushunchalar to'g'risida tasavvur hosil qilish, fonematik eshitishni

shakllantirish o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalaydi. Shunday qilib, fonetikaga oid bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik va sh.k. malakalar hosil qilinadi.

Maktab ona tili predmetida leksika materiallari boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatila boshlanadi. O'quvchilar so'zlarning ma'nolari, yaqin ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar va shu kabi leksik hodisalarni o'rganish yo'li bilan har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish uslubini ham o'rganishadi.

Yuqoridagilarga o'xshab, morfologiya va sintaksis elementlariga bog'langan holda bolalarda orfografik, orfoepik, uslubiy, punktuasion, prosodik malakalar tarkib toptiriladi.

Ona tili tarkibiga ko'ra murakkab o'quv predmeti bo'lib, u ikki yarus (qavat)dan iborat: uning ustki yarusini tilning fonetika, leksika, grammatikasiga oid elementar nazariy bilimlar, ikkinchi yarusni orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuasion, prosodik malakalar tashkil etadi. Tildan o'rganiladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalar bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili predmeti bola o'qish va yozishni o'rgangandan boshlab, toki umumiy o'rta ma'lumot olgunga qadar davom etadi. Ona tili predmetida ko'zda tutilgan muammolar, ularning hajm va ko'lam jihatidan takomillashib borishi hisobga olinib, o'zbek tili darsliklari tuziladi. Binobarin, ona tili predmeti to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar darslik tuzish uchun asos hisoblanadi.

Darsliklarda u yoki bu sinf o'quvchilarining tayyorgarlik jarayoni psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinadi. Har bir darslik aynan olingan sinf (masalan, 1-sinf yoki 4-sinf) o'quvchilarining yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga mo'ljallab tuziladi.

1.2. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari va shakllari

Boshlang'ich sinflarda "Ona tili" fanini o'qitishning samaradorligi juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'langan. Shubhasiz, o'quvchilarning

psixologik xususiyatlari va o`quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta`limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to`g`ri belgilash, o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida pedagogik hamkorlikning o`rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta`minlash bilan aloqadordir.

Ana shu omillar ichida ona tili ta`limning mazmuni muhim va yetakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o`quvchilarga **“Nimani o`qitish?”** masalasi bilan chambarchas bog`liq. Ona tili ta`limidan o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko`nikmalar tizimi to`g`ri belgilansagina **“Qanday o`qitishi kerak?”** degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir.

“Nimani o`qitish?”** va **“Qanday o`qitish kerak?” bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog`langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko`rsatmaydi.

Ona tili ta`limning samaradorligi, birinchidan, ta`lim mazmuni, ya`ni shu fandan o`quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko`nikmalar tizimi bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchidan, ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o`quvchilarning ona tilini o`rganishga bo`lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan chambarchas bog`langan.

Ona tili ta`limning samaradorligini ta`minlovchi muhim vositalardan biri o`qitish metodini to`g`ri tanlanishidir.

Ona tili darslarida o`qituvchi ko`proq o`quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o`quv materialini tushuntirib berish yoki o`quvchi duch keladigan tushuncha, ta`rif va qoidalar atrofida suhbat o`tkazish bilan o`rgatib bo`lmaydi. Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchi ta`lim

jarayonining sub`ekti ya`ni faol ishlovchisiga aylanib, har bir o`quv topshirig`ini aqliy faoliyat “chig`irig`i”dan o`tkazgan taqdirdagina o`quv materiallarni o`zlashtirish jarayoni ancha yengil kechadi va dars mashg`ulotlarining samaradorligi ta`minlanadi. O`qitishning amaliy metodlariga tayangan o`qituvchi o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o`quvchining faolligini to`g`ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta`minlaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tilidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o`qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o`qituvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi.

O`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarning eng serunumi muammoli o`qitishdir. Biz boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh hamda umumiy bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanishni maslahat beramiz:

**1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o`rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish.** Chunonchi, o`rganiladigan har bir mavzu o`quvchilardan tovushlar, so`zlar va gaplarni qiyoslashni, shu asosda umumlashmalar hosil qilishini talab etadi. Bu hol o`z-o`zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O`quvchilarda “Nima uchun” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug`iladi. Masalan, “Unli va undosh tovushlar” mavzusi o`rganilayotganda o`quvchi avval unli va undosh tovushlarni to`g`ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so`zlar, so`zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi. O`quvchilar bu topshiriqlarni bajarish asosida umumlashma hosil qiladilar.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O`quvchi dars mashg`ulotini muammoli savolni o`rtaga tashlash bilan boshlaydi. Masalan, 1) unli va undosh tovushlarni alohida - alohida aytib ko`ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz? 2) Oltita unli harf ishtirok etgan so`z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko`ring. Qanday o`zgarishlarni sezayapsiz? 3) undosh tovushlarni talaffuz etib ko`ring. Shovqin va ovozdan hosil bo`lgan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo`lgan undoshlarni alohida yozing. Agar topshiriqlarni bajarish muayan qiyinchilik to`g`dirsagina, namuna ko`rsatiladi.

Matn yaratish ham o`quvchi uchun muammo sanaladi. Buning ehg samarali yo`llaridan biri o`quvchilarga so`roqlar berib, ularga javob topishni talab qilishdir. Masalan, 1. O`zbekistonda qaysi tumanlar bor? 2. Ular qanday mahsulotlar etishtiradilar? 3. O`zbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur? 4. O`zbekiston xorijiy mamlakatlarga qanday mahsulotlar chiqaradi? kabi

Bunday topshiriqlarni bajarib bo`lgandan keyin ijodiy matn yaratishi ancha osonlashadi. O`quvchilar hukmiga “Bog`da”, “Polizda”, “Sinfimiz kutubxonasi”, “Sevimli ertagim”, “Aziz onajonim”, “Mehribon do`stlarim” singari mavzularda matn yaratish tavsiya etiladi.

3. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, O`zbekiston qovunlari rasmi va nomini berib, shunday mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

4. Muammoli vaziyat yaratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa , so`zlarni muayyan uyalarga birlashtirish, umumiy ma`noli so`zning xususiy ma`nosini yoki xususiy ma`noli so`zlarning umumiy ma`nosini topishni talab qilish muammoli

vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o`quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o`nlab, hatto yuzlab uyadoshlari borki, o`qituvchi umumiy ma`noli so`zni o`quvchilar hukmiga havola etadi va (zaruriyat bo`lsa, unga bitta namuna ko`rsatadi) qolgan so`zlarni topishni o`quvchilarga topshiradi.

Namuna: 1. Sabzavotlar:

sabzi

2. O`quv qurollari:

kitob

Ko`rinib turibdiki, muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan asosiy vosita o`quv topshirig`idir. O`quvchilarga beriladigan o`quv topshiriqlari qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy harakterda bo`lishi mumkin.

Qayta xotiralash xarakteridagi topshiriqlar o`quvchidan hech qanday izlanishni talab etmaydi. O`quvchi o`tgan darsda yoki undan oldingi mashg`ulotlarda o`rganilganlarni faqat takrorlashdan nariga o`tmaydi. Shu sababli, bunday topshiriqlar umumiy topshiriqlar miqdorining atigi 25-30% ini tashkil etmog`i lozim. Qolgan topshiriqlar esa qisman ijodiy va ijodiy xarakterda bo`lishi kerak. Topshiriqlarning qisman ijodiy yoki ijodiy bo`lishi sinf o`quvchilarining o`quv imkoniyatlariga bog`liq. Agar o`quvchilarning o`zlashtirish darajasi past bo`lsa, o`z-o`zidan topshiriq qisman ijodiyga aylanadi. Chunki o`quvchi yo o`qituvchining tushuntirishi, yo ko`rsatilgan namunaga qarab ish ko`rishga majbur bo`ladi. Shuning uchun o`quvchilarning o`quv imkoniyatlari kengayib borgan sari, ijodiy topshiriqlar miqdori ham ortib borishi kerak.

O`qituvchi kichik maktab yoshidagi o`quvchilar bilan qaysi yo`nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O`quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o`qituvchisidan mohirlikni, o`ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg`ulotlarida o`qituvchi

nafaqat qayta xotiralashga asoslangan o`quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.

Bola ilk bor maktabga qadam qo`ygan ekan, ma`lum so`z jamg`armasi bilan keladi. U oilada, bog`chada ko`p so`zlarni ishlatsa-da, hali ularning ma`nosini chuqur anglamaydi. 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo`lgan bolalar bo`lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo`ladi. Mashhur psixolog V.A. Kruteskiyning ta`kidlashicha, bu davrda ular o`z oldilariga “Nima uchun bunday?” – “Nima uchun shu narsani o`rganish kerak?” degan savolni qo`ya oladigan bo`lishadi. Bu davrda ular “Nima uchun o`z ona tilimizni bilishimiz kerak?” degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o`rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy, ilmiy adabiyotlarni o`rganishlariga keng yo`l ochib berishini anglay boshlaydilar.

Ma`lumki, boshlang`ich sinflardagi o`qish, avvalo, psixik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularda sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar ancha tarkib topadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`z idroklarining aniqligi, sofliigi, o`tkirligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ular har bir o`rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars jarayonida duch kelinadigan so`zlarni tez qabul qiladilar. Ona tilini o`rganishga bo`lgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi o`quvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha o`tkirlashtiradi. Ba`zan bu yoshdagi bolalar kattalarning diqqat-e`tiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois o`qituvchi dars mashg`ulotlarida sinchkovlikni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida e`tibor berishi lozim.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo`lib, u maktabda o`qish jarayonida takomillashib boradi.

Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Ta'lim ta'siri bilan asta-sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda fanga qiziqish o'qituvchini sevishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshida bolalar uchun eng katta obro' bu oqituvchi. Bola ona tili fanidan dars beradigan o'qituvchini sevsa, uning o'qitadigan fanini ham yoqtiradi. O'qituvchidan bezgan o'quvchi uning fanidan ham bezadi. Kichik yoshli maktabxon har qanday bilimni o'qituvchisi orqali idrok etadi. O'quvchilar o'qituvchining oliy himmat, kuyunchak, mehribon ekanligini, ularning har birini tushunish mahoratini hamda o'sib ulg'ayib, kamol topib borayotganligidan xursand bo'lish qobiliyatlarini, o'ta bilimli o'qituvchi ekanligini sezishlari kerak. Ana shundagina, o'quvchilarning sizga degan mehri tobora oshib boraveradi. Siz ularning eng yaqin mehribon kishisiga aylanasiz.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish va undan kelib chiqqan holda ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash quyidagi natijalarga erishishga ko'maklashadi:

1. *Ona tili ta'limi mazmunini o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqlashtirish.* “Ona tili” darsligida beriladigan o'quv topshiriqlari, tushuncha va qoidalar sharhi yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadigan qo'shimcha o'quv materiallari bolalarning yosh xususiyatiga qancha muvofiq kelsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi.

2. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyati va ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash dars mashg'ulotini to'g'ri tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.* O'qituvchi bolalarning yoshini hisobga olsa, darsni to'g'ri tashkil etadi, o'qitishning maqsadga muvofiq metodini tanlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi va h.

3. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini aniqlamay turib, “O'quvchi + o'quv topshirig'i + o'qituvchi” o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri belgilash mumkin emas.* O'qituvchi o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi bilan aloqa bog'laydi. Bolalarning yoshini bilish o'qituvchi va oquvchi orasidagi hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishga keng imkoniyat yaratadi.

4. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi.* Topshiriqlar o'quvchilarning bilim saviyasiga mos bo'lsagina u samarali bo'ladi.

2-bob. 3- sinfda “Gap” mavzusini o`rganish.

2.1. Boshlang`ich sinflarda “Gap” mavzusini o`rganishdagi izchillik.

Boshlang`ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar *amaliy o`rganiladigan* va *nazariy o`rganiladigan* bilimlarga bo`linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o`rganish savod o`rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang`ich sinfda “Gap”, “Darak gap”, “So`roq gap”, “Buyruq gap”, “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Gap bo`laklari”, “Gapning uyushiq bo`laklari”, “Undalmali gaplar” mavzulari nazariy o`rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Boshlang`ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko`nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o`zlashtirilgani uchun tilni o`rganishda gap ustida ishlash markaziy o`rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo`lib, boshlang`ich sinf o`quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe`l va ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O`quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So`zning leksik ma`nosi va uning qo`llanish xususiyatlari so`z birikmasi yoki gapda ma`lum bo`ladi. So`z gapda bir ma`noli bo`ladi (gapdan tashqari bir necha ma`no ifodalash mumkin).

Boshlang`ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo`nalishga bo`lish mumkin:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo`lgan gapning muhim belgilarini o`rgatish).

2. Gap qurilishini o`rgatish (so`z birikmasida so`zlarning bog`lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo`laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig`iq gaplar ustida ishlash).

3. O`quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko`ra turlaridan foydalanish ko`nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi. Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi barcha sinflarda o'rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazgan ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamaları kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar.

4-sinfda gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga) bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyatini ochish uchun o'quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo'lagiga bog'lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari gapni yoyish (yig'iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko'rinadi. Masalan, o'quvchilar

“Qushlar uchib keldi” gapini yozadilar. Fikrni to’liq ifodalash uchun gapga *qaerga?* va *qachon?* so’roqlariga javob bo’lgan so’zlarni qo’yish topshiriladi. O’quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo’lagi (ikkinchi darajali bo’lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar.

O’quvchilarda gapda so’zlarning bog’lanishini aniqlash ko’nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko’nikmalar qatoriga kiradi. So’z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang’ich sinflarda uning muhim belgilari idrok qilinadi. “So’z birikmasi” atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta’rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o’quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

1. So’z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog’langan ikki qism bo’ladi. Masalan, “*Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar*” gapida ikkita so’z birikmasi bor: 1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.

2. So’z birikmasida bir so’z hokim ikkinchi so’z tobe bo’ladi. Hokim so’zdan tobe so’zga so’roq beriladi, tobe so’z shu so’roqqa javob bo’lgan so’zdir. Masalan, (*Qanday?*) *Iqtidorli o’quvchilar (qaerga?) to’garakka a’zo bo’ldilar*. Ega va kesim so’z birikmasini emas, gapni hosil qiladi.

Gap tarkibidagi so’z birikmalarni ajratish ko’nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirilib boriladi. Buning uchun o’quvchilarning so’z birikmasidan bir so’zning boshqa so’zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi:

1. *Gaplarni yoyish*. Buning uchun gapning qaysi bo’lagi yoyishni talab qilishi aniqlanadi. Masalan, “*Daraxtlar gullaydi*” gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi.

– Daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qanday so’zni qo’shish kerak?

– Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi)

– Bu so’z gapning qaysi bo’lagi bo’ladi? (Ikkinchi darajali bo’lak)

– U gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi, ya'ni tobelanadi? (Kesimga bog'lanadi)

– Gapga egani izohlaydigan yana bitta so'z qo'ying. Qanday gap hosil bo'ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi).

2. *So'zlari aralash berilgan gapni qayta tiklash.* Avval gapning asoslari (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), so'ng so'roqlar yordamida ikkinchi darajali bo'laklar (so'z birikmalari) “topiladi”, tiklanadi. Masalan, *Mashinada, teradi, terimchi, paxtani.*

– Gap kim haqida aytilgan? (Terimchi haqida, *kim?* – terimchi)

– U haqda nima deyilgan? (Teradi. *Terimchi teradi* – bosh bo'laklar).

– So'roqlar yordamida so'z birikmasini toping. *Nimani teradi?* (Paxtani teradi) *Nimada teradi?* (Mashinada teradi). Keyin gapda so'zlarning qulay tartibi aniqlanadi (*Terimchi paxtani mashinada teradi*). Gap ohanggi ustida ishlanadi.

3. *Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish.* Mashqning bu turi ongli bo'lishi uchun har bir gapning bosh bo'laklarini va so'z birikmalarini ajratish lozim.

4. *Gapni tahlil qilish va chizmasini chizish.* Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak, boshqa ikkinchi darajali bo'lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin so'z birikmalari ham aniqlanadi.

5. *O'qituvchi bergan chizma yoki so'roqlar asosida gap tuzish: Kim? nimalarni? nima qildi?* (Bola olmalarni terdi).

So'z birikmasi ustida ikki yo'nalishda ish olib boriladi:

1) so'z birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi;

2) so'z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, *soat* – so'z, *oltin soat, qo'l soat, osma soat, elektron soat* – so'z birikmalari.

Nutq o'stirishning pirovard maqsadi o'quvchilarda bog'lanishli nutq malakalarini takomillashtirishdir. Kishi ko'pincha o'z fikrlari, qarashlari,

mulohazalarini Bog'lanishli nutq shaklida beradi. Chunki ma'lum bir situativ hodisaning mazmuni gap doirasiga sig'maydi. Shundan bog'lanishli nutqqa ehtiyoj tug'iladi.

Mantiqan o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan, izohlaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan xatboshiga bo'linadigan, monolog ko'rinishidagi nutqni Bog'lanishli nutq deb tushunamiz.

Bola tuzadigan Bog'lanishli matn ham grammatik tomondan (nutqning lug'at tarkibi, so'z ma'nodoshlari, gapda so'zlarning Bog'lanishliqligi, gaplar o'rtasidagi ketma-ketlik), ham mantiqiy tomondan (mavzuning asosiy g'oyasini ochish, fikrni mantiqiy izchillikda bayon qilish) hisobga olinishi zarur. Nutq maqsadga muvofiq so'z tanlash, tanlangan so'z yordamida tahlil qilinayotgan sohaning turli belgilarini ifodalayotgan gap tuzish, gaplarni mantiqan bog'lash, gap va xatboshilardan yaxlit matn hosil qilish bog'lanishli nutqning asosiy shartlaridir.

Pedagogik amaliyotimiz jarayonida o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bolalar boshlang'ich sinfda gap tuzish va o'z fikrini mantiqiy izchillikda bayon qilishga ancha qiynalishadi. Gap va bog'lanishli nutq ustida ishlash qandaydir ma'lum vaqtdagina emas, balki butun o'quv yili mobaynida o'tkaziladigan davomli mashq bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sintaksis elementlari bilan ta'limning ilk kunlaridanoq tanisha boshlaydi. Bolalar dastlab 1-sinfda nutq birligi-gap to'g'risida, gapning bosh harfdan boshlanishi va uning oxiriga nuqta qo'yilishi to'g'risida ilk ma'lumot olishadi. Keyingi sinflarda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ularning ohangi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari bilan tanishadi. Gap bo'yicha o'tkaziladigan darslarda, bolalar, gap so'zlardan tuzilishi, unda kim yoki nima haqida aytilganini, shuningdek, gapda nimalar xususida fikr yuritilganligini, gapda so'zlarning o'zaro qanday bog'langanligi va bu bog'lanishni so'roqlar yordamida aniqlash mumkinligini o'zlashtirishadi. Bola o'z fikrini gap vositasida ro'yobga chiqarish yo'li bilan tilning grammatik qurilishini amaliy

o'rganadi. U gap tuzish malakasini egallagan sari bog'lanishli nutq tuzishni ham bilib oladi.

Bog'lanishli nutq o'stirishning ham o'ziga xos usullari bor. Mazmun jihatidan ajratilgan gap, xatboshilarni mantiqan qo'shib, yiriklashtirish, grammatik vazifali hikoya, matn yaratish, ish qog'ozlari, bayon, insho yozdirish yo'llari bilan bog'lanishli nutq o'stiriladi. Gap va bog'lanishli nutq ustida ishlash usullariga rioya qilib, biluv topshiriqlari ta'limga tatbiq qilinadi. Namuna tariqasida mazmunan ajratilgan sodda gaplarni moslari bilan birlashtirib, yirik nutq birligiga aylantirishga oid biluv topshirig'ini keltiramiz.

Topshiriq. Chap tomondagi gaplarga o'ng tomondagi gaplardan mosini qo'shib, qayta gap tuzing.

Qo'ng'iroq chalindi	Gullar ochildi
Chol qo'lini ko'tardi	Yiqilib tushdi
Bola yugurdi	Duo qildi
Bahor keldi	Dars boshlandi

Bunday biluv topshirig'ini bajarishda 3-sinf o'quvchilari gaplarni mazmun jihatidan birlashtirib, yanada yirikroq nutq birligiga aylantiradi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi. Chol qo'llarini ko'tarib, duo qildi. Bola yugurdi va yiqilib tushdi. Bahor kelib, gullar ochildi.* Ushbu sodda gaplarning mazmuni va ularni o'zaro birlashtirish usuliga rioya qilib, biluv topshirig'i bajariladi.

2.2. 3- sinf “Ona tili” darsligida “Gap”

mavzusining yoritilishi va mavzuni o`rganishda foydalanishga mo`ljallangan ijodiy topshiriqlar

Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitishning asosida grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko`nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi. Bu davrda bolalar til materiallarini tahlil qilishga, asosiy tushunchalarni ajratishga o`rgatiladi. Materialni tahlil va tarkib qilish, guruhlash va umumlashtirish, o`xshash va farqli tomonlarini topish, nutqiy va orfografik ko`nikmalarni amalda tadbiq etish jarayonida bolalar har tomonlama rivojlanadi.

3-sinfda “Gap” bo`limi mavzusini o`rganishga 30 soat ajratilgan.

O`quvchilar 2-sinfda gap bilan amaliy tanishganlar, nutqdan gaplarni ajratishni, gapning tugallangan mazmun bildirishini, gap oxirida ovozning pasayishi va to`xtam bo`lishini, yozuvda nuqta qo`yilishini, gap ki yoki nima haqda aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so`zni aniqlashni, gap tuzishni va gapni savollar orqali kengaytirishni, gapning birinchi so`zi bosh harf bilan boshlanishini bilib olganlar. 3- sinfda o`quvchilarning “Gap” mavzusi yuzasidan olgan bilimlari takrorlanib, mustahkamlanadi va kengaytiriladi.

“Gap” bo`limi mavzusi o`tilganda o`quvchilar gapning turi, gap turi, gap bo`laklari va gapda so`zlarning bog`lanishi haqida ma`lumot oladilar;”Darak va so`roq gap”, “His-hayajon gap”, “Gapning bosh bo`laklari” (ega va kesim), “Ikkinchi darajali bo`laklar ” mavzularini; gapda bir- biri bilan bog`langan so`zlarni juft-juft qilib ajrata olishni o`rganadilar. Darslikdagi yangi materialni o`rganishga kirishish oldidan o`quvchilarning ijodiy fikr yuritishlari, izlanishlari, qiziqishlari va faolliklarini oshirish maqsadida “Nutq nima?” “Nima uchun nutqimizda turli gaplar qo`llanadi?”, “So`roq gaplar qanday

tuziladi?’, “His- hayajon gaplar qanday bo’ladi?” kabi savollar qo’yilgan. Bu kabi savollar darsning maqsad va vazifasini belgilaydi.

XX asrning 80-yillarida “samaradorlik” tushunchasining didaktik jihatlarini O.Roziqov tahlil qilgan edi . U ta’lim jarayoniga qo’yilgan o’quv maqsadi bilan bolalar erishgan natija o’rtasidagi farqni tahlil qilib, samaradorlikni ta’lim jarayoniga qo’yilgan maqsad va erishilgan natija o’rtasidagi tafovut shaklida qayd etgan . Shu bilan birga muallifning yozishicha, samaradorlik fanlararo tushuncha bo’lib, uning mohiyati ta’limni tashkil etish muhiti, vaqt, natija, ta’limni tashkil etish madaniyati kabi tushunchalar bilan aloqador. O.Roziqov didaktik hodisalarni sistem tahlil qilish metodologiyasiga asoslanib, ta’limning samaradorligini oshirishning qator tamoyillarini ham qayd etgan. Ta’limning samaradorligini oshirish uchun ta’lim jarayonida qo’yilgan maqsad bilan erishiladigan natija o’rtasidagi tafovutni kamaytirish (1), ta’lim vositalarining ta’lim jarayoni mazmuniga mosligi (2), ta’lim mazmuni va faoliyat usullarini bir paytda o’zlashtirish (3), ta’limni bolalarning yuqori darajadagi taraqqiyotini mo’ljallab tashkil etish (4) kabilar samaradorlik tamoyillari sifatida asoslangan.

Keyinchalik O.Roziqovning M.Mahmudov va B.Adizovlar bilan hamkorlikda e’lon qilgan asarlarida ta’limning samaradorligi yanada kengroq tadqiq qilindi . “Ta’lim samaradorligini oshirishning,-deb yozadi mualliflar, - ikki xil ko’rsatkichi mavjud: samaradorlikning sifat ko’rsatkichlari; samaradorlikning miqdor ko’rsatkichlari” . Mualliflarning yozishicha, samaradorlikning sifat ko’rsatkichlari ma’lumot mazmuni va faoliyat usullarini egallash shartlariga, samaradorlikning miqdor ko’rsatkichlari ta’lim maqsadi hamda bolalar erishgan haqiqiy bilim, malaka va taraqqiyot o’rtasidagi farqlarga ko’ra aniqlanadi .

Samaradorlikning sifat ko’rsatkichlari quyidagilar: o’quv-tarbiya ishlarini bolalarning eng yuqori darajadagi taraqqiyotini mo’ljallab tashkil etish; ta’lim jarayoni maqsadi bilan natijasi o’rtasidagi tafovutni uzluksiz kamaytira borish; ta’lim vositalarining ta’lim jarayoniga mosligini ta’minlash; o’quv material va faoliyat usullarini bir paytda (parallel) o’zlashtirish.

Samaradorlikning miqdor ko'rsatkichlari quyidagilar: ta'lim sifatini (bolalar bilimining ko'lamini, umumlashmalar darajasi, bilimlarni amalga tatbiq etish olish) yaxshilash; ta'lim jarayoni natijasining qo'yilgan maqsadga (bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasini Davlat ta'lim standartlari darajasida o'zlashtirish) yaqinlashtirish; ta'lim vositalarining o'quv-tarbiya jarayoni mohiyatiga mosligini ta'minlash; vaqt taqsimotini rasional taqsimlash.

Biluv topshiriqlari grammatik mashqlar bilan ona tiliga oid o'quv muammolari o'rtasidagi oraliq vosita bo'lib, o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishning yetakchi omilidir. Ulardan unumli foydalanish bolalarda mustaqil ijodiy ishga layoqatini o'stiradi.

Biluv topshiriqlari dars jarayonida ta'limga tatbiq qilinadi. Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslarining

- yangi bilimlarni o'rganishga tayyorgarlik,

- yangi bilimlarni idrok qilish,

- ona tilidan o'rganilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlash bosqichlarida biluv topshiriqlari ta'limga tatbiq qilinadi.

O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarining

- ona tilidan o'rganilgan bilimlarni takrorlash,

- malaka hosil qilish,

- mavzu doirasida bolalarning bilimi, ijodiy faoliyat tajribasini kengaytirish bosqichlarida biluv topshiriqlaridan foydalaniladi.

Ona tilidan bolalarning bilim va malakalarini umumlashtirish darslarining

- ikki yoki undan ortiq mavzuda o'rganilgan bilimlarga oid dalillarni taqqoslash,

- dalillardan umumiy xulosa chiqarish,

- chiqarilgan xulosani murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish bosqichlarida biluv topshiriqlari tashkil etiladi.

Biluv topshiriqlarini ta'limga tatbiq etish jarayonida ona tili o'quv predmetining barcha nuqtai nazarlari hisobga olinadi. Biluv topshiriqlari bolalarda

-fonetik hodisalarni (nutq tovushi va harf, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo'g'in, uning turlari, bo'g'in ko'chirish, urg'u) ajrata olish,

-so'z va uning ma'nolarini (so'zning ma'nosi, so'z turkumlari, yaqin va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, so'z uyalari to'g'risidagi dastlabki qarashlarini hosil qilish) farqlay bilishga,

-gap (uning turlari, gapning bosh bo'laklari, gapda tinish belgilari) va uning grammatik xususiyatlarini anglash layoqatlarini rivojlantiradi.

Biz quyida 3-sinfda ona tili darslari samaradorligini oshirishda foydalanishga mo'ljallangan ijodiy topshiriqlardan namunalar keltirib o'tamiz.

1-topshiriq

A, Y, Q, K, R, B, J, E, U, V, P, Ch berilgan harflarni alifbo tartibida joylashtiring. Unli va undosh harflarni alohida guruhlariga ajratib yozing. Ularni talaffuz qilib, aytilishiga diqqat qiling.

2-topshiriq

“Biz sportni sevamiz” mavzusida matn tuzing. Matnda darak, so'roq, undov gaplardan foydalaning.

3-topshiriq

Ov, sut, zar, bog' so'zlariga o'zakdosh so'zlar tanlab yozing. SHu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

4-topshiriq

-chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz kabi so'z yasovchi qo'shimchalardan foydalanib yangi so'zlar yasang. Ot yasovchi qo'shimchalar qo'shilgan so'zlarni alohida guruhga ajratib yozing. So'zlarning ma'nolariga diqqat qiling.

5-topshiriq

Umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bayramlar haqida ma'lumot yozing. Ularning qanday o'tkazilishi va taassuroti haqida matn tuzing.

6-topshiriq

Sevinmoq, sog'aymoq, asramoq, tugatmoq, yugurmoq, yig'moq kabi fe'llarga yaqin ma'noli fe'l tanlang va yozing. Ulardan foydalanib, oltita gap tuzing.

7-topshiriq

“O'qish” darsligining 68-sahifasida berilgan “Jaloliddin Manguberdi” hikoyasidan shaxs oti va joy nomlarini bildiruvchi so'zlarni ajratib yozing.

8-topshiriq

Yil fasllari bilan bog'liq o'zbek xalq maqollaridan 10 ta yozing. Ularning ma'nolarini izohlashga harakat qiling.

9-topshiriq

_____ -- ----- _____

shu qolipga mos gap tuzing.

10-topshiriq

“O'qish” darsligining 135-sahifasida berilgan “Donolarning donosi” hikoyasidan birlik va ko'plikda kelgan so'zlarni ajratib yozing kabi.

Quyida keltirilgan topshiriqlar ham o'quvchilarning faollashtirishga, darsning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tahlil qilishga oid biluv topshiriqlari: 1) matnni o'qib, gaplarni uch guruhga ajratib yozish usulini tushuntiring; 2) gaplarni o'qib, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini ko'rsating; 3) gapni o'qib, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlang; 4) bahor to'g'risida gap tuzib, uning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini so'roqlar vositasida ko'rsating va sh.k.

Qayta qo'shishga oid biluv topshiriqlari: 1) to'rtta gap berilgan. Ularni mazmuniga ko'ra qayta qo'shib chiqsangiz nechta gap hosil bo'ladi: Bahor keldi. Izg'irin boshlandi. Daraxtlar kurtak chiqardi. Hammayoq oppoq kiyimga o'randi; 2) o'ng tomondagi gaplardan mosini chap tomondagi gaplar bilan qo'shib, uchta kichik matn tayyorlang.

Qo'ng'iroq chalindi	Biz konkida uchdik
Osmonni bulut qopladi	Dars boshlandi
Suv muzladi	Momaqaldiraq ovozi eshitildi

3) o'zingiz tuzgan kichik matnlarga sarlavha tanlang va h.k.

Tatbiq qilishga oid biluv topshiriqlari: 1) matndan darak gap ta'rifiga mos keladigan gaplarni ajratib yozing; 2) darak, so'roq, undov gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilarini eslab matnni to'ldirib ko'chiring.

Kuz

Kuz keldi bog'da qip-qizil va sap-sariq noklar pishdi ishkamlarda uzumlar zarhal rangda tovlanadi qovun sayli qachon boshlanadi eslaysizmi eh kuz qanday ajoyib fasl.

O'quvchi tevarak- atrofdagi narsalarni, ularning mohiyatini birdaniga emas, balki asta- sekin o'rganadi. O'qish, kundalik faoliyat, kishilar bilan aloqada bo'lish bolalar oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yadi. Bolalar grammatik usullar bilan aqliy faoliyat usullarini puxta o'rganib olishsa, ulardan foydalanish yo'llarini aniq his etishsa, ularning ish unumi oshadi.

Biz quyida 3- sinfda "Gap" mavzusini o'rganish bo'yicha dars- reja ishlanmalarini keltirib o'tamiz.

Mavzu: Gap.

Darsning maqsadi: o'quvchilarning gap haqidagi bilimlarini aniqlash; matndagi gaplarni ohang bilan o'qish, nima haqda ekanini anglash; o'quvchilar nutqini o'stirish; gap tugagandan so'ng keyingi gapni bosh harf bilan yozish qoidalarini eslatish; o'quvchilarga tinchlik, do'stlikni qadrlash kabi xislatlarni singdirib borish; yaxshi niyatlar qilishga o'rgatish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi

Darsning metodi: suhbat

Darsning jihozi: “Orzular shaharchasiga sayohat” plakati, darslik.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. Oquvchilarning darsga hozirligini aniqlash.

O'tgan darsda yozilgan “bayon” haqida biroz to'xtalib, ballar e'lon qilinadi.

2. “Orzular shaharchasiga sayohat” yozuvi yozilgan plakat doskaga osib qo'yiladi va o'quvchilar kelgusida nimalarni orzu qilishlari haqida o'zlarining fikrlarini aytadilar va bu haqda gaplar tuzadilar. Orzularga erishish yo'lida tinmay izlanish, o'qish, o'rganish kerakligini aytiladi. Tuzilgan gaplardan eng mazmunli, chiroyli va dolzarb mavzudagisi tanlab olinadi. Gap tuzgan o'quvchi doskaga chiqib, tuzgan gapini yozadi. Boshqa o'quvchilar ko'chirib yozadilar.

3. Husnixat mashqlari. “Chiroyli yozuv – insonning husni” shiori ostida.

Samarqand, sayqal.

Ss. Samarqand- qadimiy, tarixiy shahar. U yerdagi me'moriy obidalariga berilgan sayqal xorijiy mehmonlarni ham hayratga soladi.

4. Lug'at ishi:

Sayqal – jilo berish, zeb berish

Xorijiy – chet ellik kishi

Me'moriy obidalar – asrlar davomida saqlanib kelinayotgan tarixiy imoratlar

5. Darslik bilan ishlash. 66 – mashq shartiga ko'ra bajariladi.

Birinchi gapni o'qing.

- *Dunyodagi barcha erksevar xalqlar bir so'zni sevib aytadilar* gapi necha so'zdan tuzilgan (8 ta so'zdan.)
- Gap oxirida ovoz nima qilyapti? (Ovoz pasayapti.)
- U nimani bildiriyapti? (Tugallangan fikrni.)
- Gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilgan? (Nuqta.)

“Erksevar xalqlar ovozi” mavzusidagi matnda berilgan har bir gap o'quvchilarga alohida- alohida o'qitilib, yuqoridagidek suhbat asosida barcha gaplar tahlil qilinadi va gap haqida berilgan darslikdagi qoida keltirib chiqariladi (gap

tugallangan fikrni bildiradi). Bu qoidani darslikdan topib o'qish o'quvchilarga tavsiya etiladi, so'ngra matndagi gaplar ko'chirib yozdiriladi. Yozilgan gaplar-matn qayta o'qiladi. So'ngra quyidagicha savo- javob o'tkaziladi;

- Matnda nechta gap bor? (4 ta.)
- Barcha xalqlarning orzusi nima? (Tinchlik.)
- *Tinchlik* so'zi turli xalqlar tilida qanday yangraydi? (Turlicha yangraydi.)
- Siz nechta millatni bilasiz?
- Qaysi millatning tilida *tinchlik* so'zini ayta olasiz?
- *Tinchlik* deganda siz nimani tushunasiz?
- Siz savollarga javob berishga harakat qildingiz. Fikr bildirdingiz. Demak, har bir gap tugallanagn fikrni bildiradi.

6. 67- mashq.

O'quvchilarga gaplarning chegarasini aniqlab, matnni mustaqil o'qib chiqish topshiriladi. So'ngra mashqdagi gaplar ustida ishlanadi.

- Birinchi gapni o'qing. (Biz do'stlikni ulug'laymiz.)
- Gap oxirida ovoz nima qildi. (Pasatdi.)
- Nuqtadan keyingi gapning birinchi so'zi yozuvda qanday harf bilan boshlanadi? (Bosh harf bilan boshlanadi.)
- Ikkinchi gapni o'qing? (Do'stlikda katta hikmat bor.)
- Gap oxiriga nima qo'yildi? (Nuqta.)
- Gap oxirida ovoz nima qiladi? (Pasayadi.)
- Bir gap ikkinchi gapdan nima bilan ajratiladi? (nuqta bilan.)
- Nuqtadan keyin kelgan gapning birinchi so'zi qanday harf bilan boshlanadi? (Bosh harf bilan boshlanadi.)

Gaplar ana shunday tahlil qilinib, doskaga yozilib boriladi. O'quvchilar daftarlariga ko'chirib oladilar.

Mashqdagi gaplar yozib bo'lingach, matnning mazmuni va tarbiyaviy jihatini ochish uchun savollar beriladi.

- Matn necha gapdan tashkil topgan? (5 ta gapdan.)

- Biz nimani ulug'laymiz? (Do'stlikni.)
- Do'stlik kishini nima qialdi? (Kishilarni bir- biriga yaqinlashtiradi.)
- Vatan obodligi, yurt tinchligi nimaga bog'liq? (Dostlikka bog'liq.)
- Sizning do'stingiz kim?
- Do'st nima uchun kerak? (Og'ir kunida yordam berish, maslahatlashish...)
- Do'sti ko'p inson nimalarga erishadi? (Baxtga...)

7. Yoddan yozuv diktanti:

*O'tgan yili bahorda,
Gul ko'chati o'tqazdim.
Tezroq gulim ochilsa,
Do'stga sovg'a qilardim.*

She'r doskaga yozilib qo'yiladi, bir necha bor o'quvchilarga o'qitiladi va doska yopib qo'yiladi. O'quvchilar she'ni yoddan yozadilar va yozganlarini doskadan tekshiradilar. To'g'ri, tez va chiroyli yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

8. Darsni mustahkamlash.

- Aziz o'quvchilar, biz siz bilan inson hayoti uchun zarur bo'lgan eng oily ne'matlarning ba'zilar bilan mashqlarimiz orqali tanishdik. Ular qaysilar?

(Tinchlik, do'stlik.)

- Endi uni qadrlay olasizmi?
- Biz siz bilan tinchlik, do'stlikka oid nimalar tuzdik? (Gaplar.)
- Gaplar nimalardan tuziladi? (So'zlardan.)
- Gaplar nimani bildiradi? (Tugallangan fikrni.)

9. Uyga vazifa: 68- mashq. Gaplarning mazmuniga e'tibor berib, matnni ko'chirib yozish. Uydagi yumushlar haqida kelgusi darsda o'rtoqlashishga tayyorlanib kelish topshiriladi.

Mavzu: Gapning turlari.

Darsning maqsadi: o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish; rasm asosida gap tuzishga o'rgatish; o'quvchilarga nutq o'stirish; to'g'ri talaffuz qilish malakalarini shakllantirish; gap mazmuniga qarab maqsadlarini anglab olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Darsning metodi: suhbat

Darsning jihozi: rasmlar, darslik

Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish. O'quvchilarning do'rtlik- o'rtoqlik haqida tuzgan bog'lanishli gaplari o'qitiladi. To'g'ri mazmunan teran, bog'lanishli gap tuzgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

2. Darslik bilan ishlash. 71- mashq. Mashqda berilgan matn o'qitilb, har bir gap qanday mazmun angelayotgani va oxiriga qanday belgi qo'yilgani aniqlanadi.

Mashqning ikkinchi sharti yuzasidan suhbat tashkil etiladi.

- So'roq mazmunini bildirgan gapni topib, ichingizda o'qing.
- Gul kosalari ichiga boshini squib turgan asalarini ko'rganmisiz? (Ha, ko'rganmiz.)
- Bu gap qanday mazmun bildiriyapti? (So'rash mazmunini bildiriyapti.)
- Oxiriga qanday belgi qo'yilgan? (So'roq belgisi qo'yilgan.)
- Keyingi gaplar o'qiladi.
- Ular nima qiladi? (Gullarning shirasini so'rib oladi.)
- Bu voqea qachon bo'lishi va asalarining ishi haqida xabar beryotga gapni o'qing.
- *Ari gul shirasini so'radi. Undan asal tayyorlaydi.*
- Bu gapdan qanday ma'no anglashilyapti? (Darak ma'nosi anglashilyapti.)
- Asalning mazasi, foydasi haqida his- hayajon bildirgan gapni o'qing.
- *Oh, asal juda mazali! Yana uning ko'p dardlarga davoligi-chi!*

O'qituvchi javoblarni umumlashtiradi: har bir gap biror maqsad bilan aytiladi. Kishilar o'zro so'zlashganda biror narsa haqida xabar beradilar, boror narsa haqida so'raydilar, biror narsa haqida his- hayajon bilan so'zlaydilar.

3. Chiroyli yozuv, malakasini shakllantirish.

Uu. Uzum, Urganch, Urumchi, ustoz, uyg'ur

Urumchida uyg'urlar yashaydi.

Husnixat qoidalariga rioya qilishga, daftar va ruchkani to'g'ri ushlashga e'tibor berilishi ta'kidlanadi.

4. Rasm bilan ishlash.

Doskaga "Qovun sayli" rasmi osib qo'yiladi. O'quvchilar diqqati doskadagi rasmga qaratiladi. Rasm asosida suhbat uyushtiriladi.

- Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? (Poliz, qovun, bobo, kishilar, bolalar.)

- Karim bobo nima qildi? (Qovum ekdi.)

- Kimlar Karim bobonikiga kelishdi? (O'g'illari, nabiralari kelishdi.)

- Ular nega kelishdi? (Qovun sayliga kelishdi.)

- Karim bobo nima qilyapti? (O'g'illariga, nabiralariga qovun so'yib beryapti.)

Javoblardan kichik hikoya tuziladi.

Karim bobo qovun ekdi. Kuzda qovular pishdi. O'g'illari, nabiralari Karim bobonikiga qovun sayliga kelishdi. Oh, shirin qovunlar! Nabira bobosidan so'radi:

- Bobo yana qovun ekasizmi?

Karim bobo kulib qo'ydi.

O'quvchilar hikoyani doskadan ko'chirib yozadilar. Hikoyada qanday gaplar borligi aniqlanadi.

5. Darslik ustida ishlash. 72- mashq shartiga ko'ra bajariladi.

Sherdagi gaplar qanday mazmun- maqsadni bildirayotgani aniqlanadi. Avval so'roq, so'ngra his- hayajon bilan aytilgan gaplar ko'chirib yoziladi. Savollar orqali she'rning mazmuni yoritiladi.

- Ammasi Dildoradan nimani so'radi?

- Dildora nima deb javob berdi?

- Yana qanday gaplar bor?

- Ular nima haqida?

Avval so'roq gaplar, so'ngra his- hayajon bilan aytilgan gaplar javobi yozdiriladi.

6. Test mashg'uloti:

1. Xabar mazmunini bildirgan gap qaysi?

A) Biram mazali non ekan!

B) Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

C) Tandirda non yopiladi.

Testning javobini bolalar kartochkalar orqali ko'rsatadilar.

7. Darsni mustahkamlash.

Gaplar turli mazmun- maqsadda qo'llanadi. Ular xabar, darak, so'rash, his-hayajonni ifodalaydi.

8. Uyga vazifa: 73-mashq. Matnda nechta gap borligi, gaplarning turi, ularning turi, ular qanday mazmun anglatishi ko'rib chiqiladi.

Mashqning ikkinchi shartini bolalar uyda bajaradilar.

Mavzu: Darak gap.

Darsning maqsadi: o'quvchilarning darak gaplar haqidagi bilimlarini kengaytirish; matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish; lug'at boyligini oshirish; muomala madaniyatini tarbiyalash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: izlanish.

Darsning jihozi: uydan maktabgacha bo'lgan yo'l tasviri, 4 faslga oid rasmlar.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish.

2. Uy vazifasini tekshirish. 73- mashq. Matnda nechta gap borligi va ular qanday gap ekanligini aniqlanadi.

3. "Muzyorar" mashg'uloti o'tkaziladi. Bu mashg'ulotda o'quvchilar iliq so'zlar aytib, bir- birlariga gul beradilar. Ra'no Muhayyoga gul berayotib: "Ozoda kiyinibsan" desa, Muhayyo Botirga: "Kecha fudbolda g'olib bo'libsizlar, tabriklayman", deb yaxshi so'zlar aytishadi. Bu bilan o'quvchilarning faolligi oshadi, bir- birlari bilan tezda muloqotga kirishib ketadilar.

4. Darslik bilan ishlash. 74- mashq.

O'quvchilarning uydan maktabga kelguncha kimlarni ko'rganlari, kimlar bilan suhbatlashganlari, qanday voqea- hodisalarning guvohi bo'lganlari haqida savollar bilan suhbat uyushtiriladi.

- Yo'lda kimlarni uchratdingiz?
- Nima haqida suhbatlashdingiz?
- Yo'lda sizni nima qiziqtirdi?
- Qanday voqeaning guvohi bo'ldingiz?

Savolarga berilgan javoblardagi gaplardan 3-4 tasi yoziladi. Gaplarning mazmunini aniqlanadi. Masalan: 1. Bolalar maydonchada o'ynamoqdalar. 2. Avtobus bekatga kelib to'xtadi. 3. Qo'y- qo'zilar o'tladi.

Gaplar o'qilib, nima haqida aytilgani so'raladi:

- Birinchi gapni o'qing. (Bolalar maydonchada o'ynamoqdalar.)
- Gap oxirida ovoz nima qildi? (Pasaydi.)
- Gap kim haqida aytilgan? (Bolalar haqida.)
- Gap qanday ma'no bildiriyapti? (Xabar ma'nosi.)
- Gap oxiriga nima qo'yildi? (Nuqta.)

Keyingi gaplar ham xuddi shunday tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi.

Biror narsa haqida darak (xabar) bildirgan gap darak gap deyiladi. Darak gapning oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga nuqta qo'yiladi. Bu qoida darslikdan topib o'qitiladi. O'quvchilar doskadagi gaplarni ko'chirib yozadilar.

5. Ijodiy ish. O'quvchilarga topshiriqlar beriladi.

1- topshiriq. Havorang, yumshoq narsalardan 6 ta topib yozing (ro'mol, junpaypoq, qo'qop, sochiq, ip, yostiq bo'lishi mumkin). Topshiriqni o'quvchi yolg'iz bajaradi, shu sababli u biroz cho'chidi.

2- topshiriq. Qattiq, qora narsalardan 6 ta topib yozing (ko'mir, temir, qora qalam, stol- stul, marmar, qora tosh bo'lishi mumkin).

O'quvchilar 1-, 2- topshiriqni yolg'iz bajarganlaridan biroz cho'chidilar.

3- topshiriq. Bu topshiriqni bolalar sheriklari bilan bajaradilar. Ular topgan so'zlarini qatnashtirib, 2 ta gap tuzadilar va daftarga yozadilar. Bu topshiriq sheriklari bilan bajarilganligi uchun osonroq kechadi.

6. Darslik bilan ishlash. 75- mashq. Og'zaki bajariladi. Undan oldin o'quvchilar diqqati fasllar haqidagi rasimga qaratiladi. Bolalar rasmda tasvirlangan qish, bahor, yoz, kuz fasllari haqida fikrlarini bildiradilar. So'ngra Uyg'unning "Kuz" haqidagi she'ridan parcha ifodali o'qiladi. She'rda gap nima haqida borayotgani aniqlanadi.

7. Uyga vazifa. 76- mashq. Gap chegarasi aniqlanadi. Gap oxiriga nuqta qo'yib, keyingi gap bosh harf bilan boshlanadi.

8. Darsni yakunlash, O'tilganlarni umumlashtirish.

- Darak gap deb nimaga aytiladi?
- Darak gapning oxirida ovoz nima qiladi?
- Darak gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

9. O'quvchilarning olgan baholari e'lon qilinadi va baholar izohlanadi.

XULOSA

Gap ustida ishlash o'quvchilarining nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarini sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (Grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap- Grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap, nutq va til birligi bo'lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida ishlash ham zarur; to'rtinchidan gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish kerak.

Boshlang'ich sinf dasturining "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich suinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaidagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi.

Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma – xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi:

- 1) analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;
- 2) sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar;

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin hozirlaydi, ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi.

O'quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi:

- 1) namuna asosidagi mashqlar;
- 2) konstruktiv mashqlar;
- 3) ijodiy mashqlar.

Namuna asosidagi mashq aniq, to'g'ri tuzilgan sintaktik qurilmalarni amaliy o'zlashtirishni, ularning ichki bog'lanishini, mazmunini tushunishni ko'zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga, shuningdek, gapni kuzatish va eshitish, uni o'qishga muhim o'rin beriladi. Namuna asosidagi mashqlarga quyidagilar kiradi:

1. Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang'ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli – namunani o'qish(yozish), intonatsiyasi, ifodaliligi ustida ishlash, gapning asosini va mazmunini tushuntirish, ba'zan esa gapni yodda saqlash, yodlash hisoblanadi.

Gapni o'qish va kuzatish nutq o'stirishga katta yordam beradi. Gap intonatsiyasi ustida ishlash gap mazmunini va bog'lanishini tushunishga, namunaga qarab, uni o'zlashtirish va yodda saqlashga, gap qurilishini yaxshi tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda nutqdan gapni intonatsiyaga qarab ajratishga, intonatsion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so'roq va his – hayajon gaplarning intonatsiyasiga, uyushiq bo'lakli gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi sanash ohangiga, boglangan qo'shma gap intonatsiyasiga e'tibor berish kerak.

2. **Savol asosida gap tuzish.** Bunda berilgan savol javob (gap tuzish) uchun asos bo'ladi va "namuna" vazifasini bajaradi. Savolda uning asosiy mazmunigina emas, balki barcha so'zlari va sintaktik qurilishining chizmasi ham beriladi. *Masalan: Bolalar bog'da nima terdilar? (Bolalar bog'da olma terdilar).*

Savollar asta – sekin murakkablashtirilib boriladi: bolalar oldin so'roq so'z o'rniga bir so'z qo'shib gap tuzgan bo'lsalar, keyinroq o'z so'zlarini ko'proq qo'shishga majbur bo'ladilar: *Bolalar bog'da nima qildilar? (Bolalar bog'da olma terdilar. Bolalar bog'da olma terdilar va savatlarga soldilar).* Yoki *“Bolalar qayerda bo'ldilar? Ular nima qildilar?”* (Bolalar bog'da bo'ldilar. Ular olma terdilar va savatlarga soldilar). *Sen tipratikan haqida nimalarni bilasan? Nega qushlar uyasini buzish mumkin emas?* kabi.

Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari quyidagilar:

1. **Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish.** Bunda so'zlar Grammatik materialning o'rganilishiga qarab uch variantda berilishi mumkin : a) so'zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: meva, bog'da, bog'bonlar, terdilar (Bog'bonlar bog'da meva terdilar); b) o'rganilgan Grammatik materialni hisobga olib, ayrim so'zlar bosh shaklda, boshqalari tayyor shaklda beriladi. Masalan, “Otlarda birlik va ko'plik” mavzusi o'tilgach, paxta, dalada, bola, terdilar shaklida berilishi mumkin; v) barcha so'zlar bosh shaklda beriladi: koptok, hovli, bola, o'ynamoq
2. **Nuqtalar qo'yilmagan, bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish.** Bu mashq bolalarni o'z nutqlarida gaplarning chegarasi ajratishga, gapni to'g'ri o'qish va yozishga o'rgatadi.
3. **Berilgan soda gapni so'roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi.** Masalan: Qushlar uchib keldi. Qayerdan uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi. Qayerga uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan o'z uylariga uchib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998. .
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir// Boshlang'ich ta'lim, 2011, 1-son, 2-3-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
6. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standart i// Boshlang'ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son.
8. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
9. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 2010.
10. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent ” Noshir” nashriyoti 2009
11. Fuzailov S. , Xudayberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik.- T.:”O'qituvchi” 2010.
12. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., “O'qituvchi ”, 1993.
13. Roziqov O. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. –T.: O'qituvchi, 1996.

14. Roziqov O. Mahmudov M. Adizov B. Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2009
15. Yunusov Q. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2005 y.
16. Tolipov O`. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T. "O'qituvchi", 2010.
17. Xudoyberganova M., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari-T: "O'qituvchi" 2010.
18. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari.-T.: "O'qituvchi", 1992
19. www.pedagog.uz
20. www.ziyo.net

MUNDARIJA:

Kirish.....

I -bob. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari.

1.1. Boshlang'ich sinflarda Davlat ta'lim standarti talablari asosida ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish.....

1.2. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari va shakllari.....

2-bob. 3- sinfda “Gap” mavzusini o'rganish.

2.1. Boshlang'ich sinflarda “Gap” mavzusini o'rganishdagi izchillik.....

2.2. 3- sinf “Ona tili” darsligida “Gap” mavzusining yoritilishi va mavzuni o'rganishda foydalanishga mo'ljallangan ijodiy topshiriqlar.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....